ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Abdullayeva Zeboxon Yaxyojon qizi

Andijon davlat universiteti magistranti

PAXTAOBOD TUMANI UYG`UR MAHALLASI SHEVASINING DIALEKTAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shevlalarni o`rganishning muhim ekanligi hamda hozirgi kunda Paxtaobod tumanida yashovchi uyg`ur millati vakillari shevasidagi ba`zi o`ziga xosliklar yoritilgan. O‘zbeklar o‘ramida yashayotgan uyg‘ur millatiga xos aholining shevasida uyg‘ur va o‘zbek tili elementlarining bo‘lishi va, aksincha, ozbeklar shevasida uyg‘ur tili xususiyatlarining namoyon bo‘lishi yoritilgan.

Kalit so`zlar

sheva, shevashunoslik, uyg`urlar, fonetik, leksik, grammatik xususiyatlar.

Barchamizga ma`lumki, bugungi kunda xalq shevalarini o`rganishga e`tibor tobora kuchayib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ma`lum bir hudud shevasini o`rganish mana shu joyning urf-odatlari, madaniyati, tarixi bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham shevalar faqatgina tilshunoslarning o`rganish obyekti bo`libgina qolmay, turli soha vakillarining tadqiqotlari uchun ham asos bo`lib xizmat qilmoqda. Tilshunos olim N.Mahmudov ta`kidlaganidek, “Xalq tilining hududiy namunalari bo‘lmish shevalar benihoya nodir boylik, ular adabiy tilimizning asosiy boyish manbalaridan biridir. Shevalarga oid so‘zlarni to‘plash, chuqur o‘rganish, lisoniy-tarixiy jihatdan tavsiflash til va xalqning murakkab tarixini tadqiq etishda muhim omillardan hisoblanadi”[1;].

Keyingi yillarda yurtimizning turli hududlariga oid shevalarni o`rganish bo`yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Misol uchun D. Andaniyazovaning “Buvayda shevasi xususiyatlari va o`ziga xosliklari ”, A.Turdialiyevning “Denov shevasini areal o`rganish va til korpusiga joylashtirish”, S.Rahimovning “O`zbek tili Surxondaryo shevalari” kabi bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari shevashunoslikka bo`lgan e`tiborning ortib borayotganligiga dalil bo`la oladi. Shuningdek, “O`zbek tilining izohli lug`ati”ning yangi nashrida bir qator shevaga oid birliklarning o`rin olganligi ham fikrimizga yana bir asosdir. Zero, “tilimizning turli shevalaridagi jilolari, so‘zlari bo‘y ko‘rsatsa, bu mukarram tilning azimligiga hech qanday isbot-u dalil kerak bo‘lmaydi. Shu ma’noda shevashunoslik masalalarini zamonaviy tilshunoslik masalalari bilan bog‘lab o‘rganish bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan hisoblanadi” [2].

Ma’lum hududdagi sheva elementlarini o‘rganishda o‘sha hudud aholisining tarixiga, etnografiyasiga asosiy e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan Andijon viloyati Paxtaobod tumani Uyg‘ur qishlog‘i shevasi tadqiqida tub aholining tarixi, yashash tarzi, urfiy va an’anaviy odatlariga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Buning uchun uyg‘urlarning Markazi Osiyoga ko‘chish tarixiga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uyg‘urlarning O‘zbekistonga ko‘chish jarayoni 3 bosqichda amalga oshirilgan: 1-bosqich XV-XVI asrlarda, 2-bosqichi XVIII-XIX asrlarda, 3- bosqichi 1950-1960 yillarda amalga

oshirilgan. Qadimdan ular *qashqarliklar, taranchilar, dolonlar* deb atalib, 1921-yildan umumiy uyg‘urlar deb atala boshlagan.

Hozirda 7,5 million kishi uyg‘ur tilida so‘zlashsa, shundan 7,3 millioni Xitoyda, qolganlari boshqa hududlarda istiqomat qiladi. O‘zbekistonda jami 50 000 ta, shundan Andijonda 20 668 nafar, Toshkent shahrida 15 322 ta, Toshkent viloyatida 9 000 dan ortiq uyg‘urlar yashab kelmoqda [4].

Paxtaobod hududida yashovchi uyg`urlar etnik jihatdan o`zbeklar bilan birikib ketgan bo`lsa-da, ularning shevasi va talaffuzida uyg`ur tiliga xos bo`lgan xususiyatlar talaygina. Quyidagi so`zlarga e`tibor qaratsak, ana shunday o`ziga xosliklarni ko`rishimiz mumkin bo`ladi:

a) uyg`ur tiliga xos bo`lgan va xalq orasida keng qo`llanuvchi so`zlar**: tonu** – tandir; **to`poq** – novvos (molning erkagi); **supa** – xontaxta. “Devoni lug`otit turk” asarida bu so`zga aynan ta`rif berilmasa-da, uning sinonimi sifatida **ko`trum** so`zi keltiriladi va *ustiga o`tiriladigan supacha* deb izohlanadi.[5; 170]. “O`zbek tilining izohli lug`ati” da **supa** so`zi “*hovli, bog` va, umuman, ochiq yerda o`tirish, yotish – turish uchun tuproqdan chorburchak shaklida ko`tarib qurilgan joy”* deya izoh berilgan [6; 588].

b) ayrim so‘zlar sheavalarga fonetik o‘zgarishlar asosida ko‘chib, fonetik variant sifatida qo‘llanadi. Masalan, **mashayliq** – shu yerlik (Andijon shevasida *mashetlik, mashiyerlik*, *mashellik* kabi shakllarda ishlatiladi. Andijon shevasida “ashnaqa” , “mashinaqa” shaklida qo`llansa, uyg`ur qishlog`ida bu so`zlar “ashindoq”, “ondoq”, “mondoq” kabi talaffuz etiladi; **chuchkurmoq** – aksa urmoq, **qoshiq** so`zi qo`shaq, **qorin** so`zi esa qo`saq tarzida aytiladi; **suzgich** so`zi uyg`ur qishlog`i vakillari orasida “chavli”, “”cho`vli” yoki “cho`:li” shakllarida ishlatiladi. “O`zbek tilining izohli lug`ati”da bu so`z “chovli” deb yozilgan hamda “novda yoki simdan to`qilgan, ugra, shilpildoq va sh.k xamir ovqatlarni suzib olish uchun ishlatiladigan cho`michsimon ro`zg`or asbobi” deya izohlanadi [7; 502].

d) uyg`ur shevasiga oid ayrim so`zlarda talaffuzda so`z tarkibidagi ba`zi undoshlar tushib qolib, uning o`rniga tushirilgan undoshdan avval kelgan unli tovushni cho`zilishini ko`rishimiz mumkin: *sa:zini to`:rang; olmani a:chib bering;*

e) uyg`ur shevasiga xos xususiyatlardan yana biri talaffuz jarayonida **a** tovushining orqa qator **ı** tovushi bilan almashishidir. Masalan, dadasi – dadısi, opasi – opısi, piyola (Andijon shevasida “piyala”) – piyalı, ukasi – ukısi;

Uyg`ur qishlog`i shevasidagi o`ziga xosliklar haqida juda ko`p to`xtalishimiz mumkin. Umuman olib qaraganda, faqatgina uyg`ur shevasininggina emas, yurtimiz hududidagi barcha shevalar va ularning o`ziga xosliklarini aniqlash, zarur bo`lsa, ular ustida maxsus lug`atlar yaratishimiz kerak. Chunki sheva va lahjalar bizning ma`naviy xazinamizdir.

Garchi Uyg‘ur qishlog‘i shevasi mustaqil (alohida) dialektologik tadqiqotga tortilmagan bo‘lsa-da, bir qator olimlar e’tiborida bo‘lgan, ularning materiallaridan boshqa ishlarda foydalanilgan. Bu zonani biz kichik dialektal zona tarzida tadqiq etishga harakat qildik va o‘z mulohazalarimizni bildirdik. O‘zbek dialektologiyasi hozirgi davrda dialektografiya bosqichini bosib o‘tdi va chuqur ilmiy tadqiqotlar yuzaga chiqdi. Ta’kidlash joizki, shevalar milliy tilning asosi va adabiy tilning manbasi hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hozirda ushbu yo‘nalish keng qamrovda tadqiqot obyektiga aylandi.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
2. .Andaniyazova. D. Buvayda shevasi xususiyatlari va o`ziga xosliklari / Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2025. 2-jild, 3-son. — www.in-academy.uz. (YO‘ITJ).
3. TurdialiyevA. Denov shevasini areal o‘ranish va til korpusiga joylashtirish. Filoloigiya fanl. bo‘yicha fals. doktori diss. Toshkent.2024.
4. uz.wikipedia.org.
5. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. Тошкент, “Фан”. 1967. 544 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, Тошкент, 2007. 3-жилд. 687 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, Тошкент, 2007. 4-жилд. 606 .